



**KASB-HUNAR LEKSIKASINING YASALISHI (MIRMUHSINNING “ME’MOR” ROMANI  
MATERIALLARI ASOSIDA)**

**Pardayev Sirojiddin Shokir o’g’li**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universitetining

O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Xorijiy tillar va Gumanitar fanlar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti, ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589488>

**ANNOTATSIYA:** Har qanday tushuncha til birliklarida–leksemalarda o‘z ifodasini topadi. Leksemalar esa muayyan qonun-qoidalar asosida yuzaga keltiriladi va til egalari tomonidan muomalaga kiritiladi. Bu jarayon bevosita tilning ichki va tashqi omillariga bog‘liqdir, chunki ular asosida til hamisha o‘zining lug‘at fondini yangi leksemalar bilan to‘ldirib turadi. Bu jarayon so‘z yasash va so‘z o‘zlashtirish vositasida amalga oshiriladi.

Umumiste‘moldagi leksikaning tarkibiy bir qismi hisoblangan terminlar tilning qonun-qoidalari asosida yaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasalishi, terminologiya, affiksatsiya, fonetik usul, semantik usul, kompozitsiya usul, abrevatsiya usul, so‘z, leksema, lug‘at, termin,

**Annotation:** Every concept is expressed in linguistic units - lexemes. Lexemes, on the other hand, are formed according to certain rules and are circulated by language speakers. This process is directly related to the internal and external factors of the language, because on the basis of which the language is constantly replenishing its vocabulary with new lexemes. This process is done through word formation and word acquisition.

Terms that are an integral part of common vocabulary are created according to the rules of language.

**Keywords:** word formation, terminology, affixation, phonetic method, composition method, abbreviation method, lexeme, dictionary, term

Каждое понятие выражается языковыми единицами – лексемами. Лексеммы же формируются по определенным правилам и циркулируют носителями языка. Этот процесс

напрямую связан с внутренними и внешними факторами языка, на основе которых язык постоянно пополняет свой словарный запас новыми лексемами. Этот процесс осуществляется посредством словообразования и словообразования.

Термины, являющиеся неотъемлемой частью общеупотребительной лексики, создаются по правилам языка.

**Ключевые слова:** словообразование, терминология, аффиксация, фонетический метод, семантический метод, композиционный метод, аббревация метод, слово, лексема, лексика, терминология,

Umumiste'moldagi leksikaning tarkibiy bir qismi hisoblangan terminlar tilning qonun-qoidalari asosida yaratiladi. har ikkala manbaga oid leksemalarning yasalishiga xos umumiylik shundan iboratdir. Lekin ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud bo'lib, ular, quyidagilardir:

**Birinchi farq.** hozirgi o'zbek adabiy tilida leksemalar besh xil usul bilan yasaladi: 1) affiksatsiya usuli; 2) fonetik usul; 3) semantik usul; 4) kompozitsiya usuli; 5) abrevatsiya usuli (Tursunov va b., 1992, 202).

Terminologik sistemalarda esa so'z yasash usullarining faqat uchtagiga amal qilinadi: 1) semantik<sup>1</sup>; 2) affiksatsiya; 3) kompozitsiya.

**Ikkinchi farq.** har bir terminologik sistema o'z boyligini turli usullar bilan yasalgan terminlar hisobiga to'ldirib boradi. Biroq, har bir sistema o'ziga xos tushunchalarni ifodalovchi leksemalar bilan ham ish ko'radi. Bunday terminlar esa yasalishi nuqtai nazaridan xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun har qaysi terminologik sistemaning faqat uning o'ziga xos termin yasash qonun-qoidalari bor. Affiksatsiya usulida elliktadan ortiq yasovchi element ishtirok etadi. Biroq, ularning ba'zilari faol ravishda, boshqalari nafaol ravishda leksemalar hosil qilsa, uchinchilari lug'aviy birliklar yasash funksiyasini to'xtatgan. Adib Mirmuhsinning asarlarida ham juda ko'plab milliy hunarmandchilikka doir terminlar qo'llangan.

Maqolada semantik usul bilan terminlar hosil qilishning har bir turiga alohida to'xtab o'tiladi.

#### I. Sof semantik usul bilan hosil qilingan terminlar

<sup>1</sup> A. Hojiyev bu usulni leksik-semantik usul ham deb ataydi//Qarang: O'zbek tili so'z yasalishi, 29 –bet.

Semantik yo'l bilan termin hosil qilishning bu usulida tilda mavjud bo'lgan va yakka holda olingan leksemalarning mustaqil ma'no anglatish hodisasi tushuniladi. *Bolor (balor)* termini «imoratning tepasiga ko'ndalang solinadigan baquvvat balka» (O'TIL, I, 29) ma'nosini anglatadi. Hunarmandchilik mikroguruhida esa mazkur termin «patli gilam to'qishda tizilgan iplarni saqlab turish uchun ishlatiladigan ikki-uch metr uzunlikdagi yog'och» ma'nosini ifodalaydi.

*Qilich* termini asli harbiy termin bo'lib, «bir tig'li, xanjardan uzun qurol» (O'TIL, II, 577) ma'nosini bildiradi. o'rganilgan obyektning gilamchilik mikroguruhida «gilam to'qishda arqov iplarni juftlashtirish uchun ishlatiladigan va qilich quroliga o'xshagan yog'och asbob» ma'nosida ishlatilayotir.

*Langar* termini «kemani bir joyda to'xtatib turish uchun zanjirga biriktirib suv ostiga tashlanadigan changaksimon og'ir temir», ikkinchidan, «dorda muvozanatni saqlash uchun dorboz qo'lida tutadigan uzun xoda» (O'TIL, I, 426) ma'nosini anglatadi.

## II. Semantik-sintaktik usul bilan hosil qilingan terminlar

Biror tushunchani ifodalash maqsadida termin hosil qilishning semantik-sintaktik usullaridan ham keng foydalanilayotir:

1. Gilam, poyonoz, olacha, sochiq, kashta, choyshab kabi narsa-predmetlar nomiga gul, kashta, nusxa, naqsh, usul, bezak kabi termin elementlar qo'shib ishlatiladi: *ikkigulli gilam, choyshab kashtasi* (keshtasi), *sochiq* (sochaq) *guli, yostiq* (dostiq) *guli* kabilar.

2. Narsa-predmetlar nomlariga qayd etilgan leksemalarni birinchi tip izofa vositasida ifodalash orqali ham maxsus terminlarning yuzaga keltirilganligini quyidagi misollar bilan tasdiqlash mumkin. Bunday lug'aviy birliklar hunarmandchilikning kashtachilik, gilamchilik kabi sohalarida ko'proq uchraydi: *anorgul* (kashtachilikda), *ilon izi* (o'ymakorlik, kashtachilik, koshinkorlik, kulollik kabi sohalarida), *chashmi bulbul* (kashtachilik, yo'rmado'zlik sohalarida), *baliqko'z* (gilamchilik, pichoqchilik), *tuya-ko'z* (holvapazlik), *samovargul* (kashtachilik), *tariqqul* (kashtachilik, gilamchilik, kulollik), *bovirsoqqul* (bo'g'irsoqqul), *kosagul* (kashtachilik, gilamchilik), *karsangul tog'oragul* (gilamchilik, kashtachilik), *tol bargi* (kashtachilik), *ittovon* (gilamchilik), *pichoq uchi* (gilamchilik) kabilar.

3. Toponim va etnonimlarga ham hunarmandchilik terminlarini qo'shish bilan terminlar hosil qilinadi: *urguti nusxa, buxorcha usul, samarqandcha bezak, qozoqi gilam, juhuti sandiq, turkmani*

*gilam, o'ris kashta, tatarcha sandiq, kattaqo'rg'oni sandiq, panjakenti etik, baxmali gilam, o'zbeki xalat* kabilar.

Kasb-hunarmandchilikning turli-tuman sohalarida ishlatilayotgan, biroq boshqa-boshqa sohalarga aloqador lug'aviy birliklar jumlasiga yana quyidagilarni dalil sifatida keltiramiz: *bodom-kashtachilik, o'ymakorlik, naqshinkorlik, to'qimachilik, jiyakchilikda; bodomcha-kashtachilik, kulollikda; ilon izi-kashtachilik, kulollik, o'ymakorlikda; kapalak-kashtachilik, to'qimachilikda; no'xat, naxo'd-kashtachilik, kulollikda; ot-* gilamchilik, kashtachilikda; *suv-* kashtachilik, gilamchilikda.

#### **Kasb-hunar leksikasining affiksatsiya usul bilan yasalishi:**

To'plangan materiallar tahlilidan hunarmandlik terminologiyasida u yoki bu tushunchani ifodalash maqsadida adib asarlarida sodda tub terminlar ham ancha qo'llangan. Bular milliy hunarmandchilikning turli sohalariga tegishlidir. E'tiboringizni asardan olingan quyidagi dallillarga qaratamiz:

**Me'mor** – Lekin bu birovning haqiqiy san'at yodgorligi daryosiga ko'tarilishi Xuroson me'morari – ustod Qavom, ustod Najmiddin Buxoriy va keyinchalik men Alisher nomi bilan bog'liqdir. (Me'mor romani, 4-bet)

**Sarkori** – Hurufiyalar sarkori Fazlulloh Astrobodyning muridlaridan bo'lmish Ahmad Lur podshohga shaxsan murojaat etmoq bahonasi bilan yaqin borib, pichoq urdi... (Me'mor romani, 3-bet).

**Elchi** – Darvoza faqat elchi-yu ancholarga maxsus ruxsatnoma bilan ochilar, mansabdor shaxslar amirzoda Ibrohim sultonning ruxsati bilan shahardan chiqa olishlari mumkin edi. (Me'mor romani, 4-bet)

**Shoir** – Bundan yetti yil avval Halab shahrida Fazlullohning maslakdoshi – shoir Sayyid Imomiddin Nasimiy hibsi etilib, og'ir qiynoq bilan qatl etilgan edi. (Me'mor romani, 4-bet)

**Naqqosh** – Navoiy bu binoni tubdan qayta ishlatgan, birinchi marotaba sharq naqqoshligiga xos rang – barang naqshingullar bilan bezatilgan. (Me'mor romani, 4-bet)

**Sarboz** – Ular saltanatning beshafqat sarbozlari kabi hammani ta'qib ostiga olgan, hamma vaqt ochiq, moviy gumbaz bag'ridagi ko'k gumbazchalar tepasida bulutlar suzar edi. (Me'mor romani, 5-bet)



**Navkar-u sipohilar** – Gumbazlar ham changligi yo‘q – ko‘zlar gumbazi, Musallo gumbazi, minoralar gumbazi g‘oyatda xomush, ular bir-biriga qovoq solib turar, kappanda, rastalarda savdo-sotiq, davom etardi-yu, ammo ortiqcha baqiriqlar, yugurib-yelishlar, yosh-yalanglar to‘dasidagi gurunglar yo‘q, faol navkar-u sipohilaridan chekkada kishilar bir-birlari bilan shivirlashib, suiqasd va hurufiyarga mansub Ahmad Lur haqida gaplashishardi. (Me‘mor romani, 5-bet)

**Tabib** – Atrofida oltin va kumush jomlarda suv va sovun, yumshoq oq matolar, qon to‘xtatadigan dori-darmonlar, kuydirilgan latta, oltin ko‘zada mo‘miyo, jarrohlik asboblari turar tabiblar “Alqonun”ni varaqlashar shayxulislom va Jome masjidi imomi damo-dam duo o‘qib, dam urar edi. (Me‘mor romani, 7-bet)

**Me‘mor** – Suiqqasdga aloqador hisoblanib, hibsga olinganlar ichida mashhur me‘mor Najmiddin Buxoriyning o‘g‘li Nizomiddin ham bor edi. (Me‘mor romani, 7-bet)

**Jarroh** – U otasi tepasida turgan jarroh-u tabibga ko‘z tashlab, keyin ichkariga, o‘z xonasiga kirdi. (Me‘mor romani 7- bet)

**Navkar** – Juma kuni yarim tunda me‘mor Najmiddin Buxoriy hovlisiga bostirib kirgan qurol-yarog‘li navkarlar uxlab yotgan Nizomiddinni turg‘izib, darhol qo‘llarini orqasiga bog‘lashdi. (Me‘mor romani, 9-bet).

**Muhandis** – Garchi Xudodbek bilan Nizomiddin tolibi ilm bo‘lmasalar, muhandis-u me‘morchilikka ishtiyoq qo‘ymagan bo‘lsalar ham, har qalay o‘zlariga xos bir xizmat topurlar, deb o‘ylardi. (Me‘mor romani, 16-bet)

**Kulol** – Faqat “G‘avvos Muhammadga ayting, koshinlarni olib kelish payti yetdi. Kulol Abutolib bilan Vasiyatiddinlarga lojuvard xoki, qo‘rg‘oshin, g‘ilvata, luk yetkazib bermoqlik kerak”, dedi. (Me‘mor romani, 20- bet)

**Sarbador** - Ikkilamchi, sarbadorlardan ko‘za ham, hozirgi paytda xavfli bo‘lgan hurufiyalar podshoh saltanatining ichidagi asosiy dushmani hisoblanadi.

(Me‘mor romani, 23-bet).

**Munajjim** – Ofarin! Munajjimlar ko‘ziga “alif” tortmoq bir tomonda, shahvoniy hirs bir tomonda! (Me‘mor romani, 124-bet)

**Xattot** – Buning ustiga, yaqinda tengqurlaridan xattot Abdurazoq Mashhadiyning vafoti safiga tushgan kuchli bir zarba edi. (Me'mor romani 130-bet).

**Kosib, dehqon** – Uning aytishicha, Manmana begi amirzodalar urug'idan bo'lib, tanish ishlarni ko'p qilar, kosiblar-u ziroat yetishtirgan dehqonlarning sarmoyasini shilib olar tinmay Xitoyga qo'y-u qoramollar yuborib turar edi. (Me'mor romani, 174-bet)

**Tesha, bolta, tamba, yog'och** – U yugurib borib uydan teshami, bolta olib kelishga ham sabri chidamay kiraverish eshikka tirab qo'yilgan tanba yog'och bilan bir necha bor urib, ichkari eshikni ham qulatdi. (Me'mor romani, 434-bet)

**Bo'yra** – Bo'yra tagidan bir hovuch tuproq yig'ib olib, uy burchagiga qo'ydi. (Me'mor romani, 174-bet)

**Bo'z** – Bo'z va boshqa mato to'quvchi Xorun degan mo'ylabdor bir odam bozorda va ichkari mahallalarda odamlarni o'z atrofiga to'plab, ularga hamdard bo'lar... (Me'mor romani, 174-bet)

**Xum** – Ikkita xumcha. Yo'l uzoq, qumlik ko'p, suv olib kajavaga solib qo'yamiz. (Me'mor romani, 195-bet)

**Lojuvard, xoki, qo'rg'oshin, gilvata** – Kulol Abutolib bilan Vasiyatiddinlarga lojuvard, xoki, qo'rg'oshin, gilvata, luk yetkazib bermoqlik kerak, - dedi (Me'mor romani 20-bet)

**Tosh, pishgan g'isht, quvur** – Bozor ichi shunchalik ozoda va ko'rkamki, tog'dan yo'ndirib kelinib yotqizilgan toshlar ko'cha-yu bozor sahnini loy-changdan asrar, pishgan g'ishtdan ishlangan ariqlar har qancha suvlarni maxsus quvurlar orqali yetkazib turardi. (Me'mor romani, 25-bet)

**Ketmon, kurak** – Shu kuni tong saharda bo'zchining olti nafar odami ketmon-u kurak ko'tarib, qal'aning orqa devorlari ostidan ikki joyini kovlab, borib to'kib, piltalarni ulab qo'yishgan edi. (Me'mor romani, 174-bet).

**G'isht** – Nainki g'isht terish, mardikorlikka ham tayyor edi (Me'mor romani, 174-bet).

Ushbu dalillardan ko'rinib turibdiki, Mirmuhsinning "Me'mor" asarida juda ko'plab sodda tub terminlar qo'llangan. Ularning asosiy qismi sof turkiycha bo'lib, qolgan qismlari arab va fors tillaridan aynan o'zlashgan terminlar hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda asarda qo'llangan milliy hunarmandchilik terminlarini hosil qilishda xilma-xil affikslardan foydalanilganligi ma'lum bo'ladi. Quyida milliy hunarmandchilikka xos terminlar yasovchi affikslar haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

*-do'z affiksi.* o'zbek tiliga fors-tojik tilidan leksemalar o'zlashtirila boshlangan paytlarda tarkibida *-do'z* (tojikcha «do'xtan», ya'ni «tikmoq» ma'nosidagi fe'ldan yasalgan) elementi bo'lgan lug'aviy birliklar ham bor edi. Bunday leksemalar fors-tojik tilida qo'shma so'z hisoblansa-da, o'zbek tilida sodda so'z sifatida namoyon bo'la boshlagan va «yasash asosida ifodalangan narsani tikish, to'qish bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini ifodalay boshlagan edi. *Zardo'z, kafshdo'z* kabi leksemalar mana shular jumlasidandir

Vaqlar o'tishi bilan *-do'z* affiksli yuqoridagi kabi leksemalar qatorida *bachakido'z, gilamdo'z, kissado'z, ko'hnado'z, mo'ynado'z, po'stindo'z, zehdo'z, jomado'z* kabilarning ham bot-bot ishlatib turilganligi, tufayli u asos tarkibidan ajralib chiqib, o'zbek tilining so'z yasovchi elementiga aylanib qoldi. Ayni paytda ham, o'zbek adabiy tili (O'TILda qayd etilgan)da *-do'z* affiksli qator leksemalar ham ishlatib kelinmoqda. Qiyoslang: *do'ppido'z, yo'rmado'z, mahsido'z, telpakdo'z, chakmondo'z, chopondo'z, eskido'z, etikdo'z, qalpoqdo'z* va b. *-do'z* affiksli leksemalar haqida gap ketar ekan, quyidagi holatni qayd etib o'tamiz:

Kasb-hunar egalari nutqida ham, aholisining o'zaro muomalasida ham qayd etilgan lug'aviy birliklar ishlatib kelinmoqda. Bu leksema tarkibidagi *-do'z* affiksining *-chi* bilan almashtirib qo'llanishi, aniqroq qilib aytganda, variantdorlikning hosil bo'lishi bilan bog'liqdir. Qiyoslang: *gilamdo'z-gilamchi, yo'rmado'z-yo'rmachi, kavushdo'z-kavushchi, telpakdo'z-telpakchi* va boshqalar.

Shu xildagi variantlilik adabiy til doirasida ham mavjud: *kashtado'z-kashtachi*<sup>2</sup>, *do'ppido'z-do'ppichi* bular leksik dubletlar shaklida mavjuddirlar. Adib asarlarida – *do'z* affiksli shunday lug'aviy birliklar ham ishlatib kelinmoqdaki, ular O'TILga kiritilmagan. Bunday holatni faqat Urgut tumani aholisi nutqida ishlatib kelinayotganligi bilan izohlash mumkin. Bular shevada quyidagi

<sup>2</sup> O'TILda mazkur leksemalar xilma xil izohlanib qolgan: Ya'ni:  
Kashtado'z ayn. Kashtachi.  
Kashtachi kashta tikuvchi, kashtado'z.



shakllarda qo'llanadi: *jiyakdo'z chakmondo'z/chakmando'z, chopondo'z, shabpo'shdo'z/shappo'shdo'z/shabpo'shchi* va b.

Adib asarida affiksatsiya usuli bilan so'z yasashiga alohida e'tibor berilgan masalan: **Bo'zchi** (Me'mor romani, 174-bet), **Tandirchi** (Me'mor romani, 311-bet), **Meshkobchi** (Me'mor romani 302-bet), **Tandirchi** (Me'mor romani 311-bet), **Kirakash** (Me'mor romani, 200-bet), **Aravakash** (Me'mor romani, 200-bet), **Zindonbon** (Me'mor romani, 33-bet), **Darvozabon** (Me'mor romani, 431-bet), **Ulgurjifurush** (Me'mor romani, 310-bet)

Shuningdek asarda –furush (**telpakfurushon, zargaron, sarrofon, timlar** – Har qanday janjal va tartibsizliklar qattiq jazolanishi aytilib, hokim hazratlarining farmoni rasta-yu madrasalarda, bozor-u toqi telpakfurushon, toqi zargaron, sarrofon va timlar ichida jarchilar baland ovozda e'lon qilgan edilar. (Me'mor romani, 385-bet), -boz **kaptarboz** – Hirotlilik kaptarbozlar o'n tillo va qimmatbaho sarupo berishni buyurdi. (Me'mor romani, 126-bet) singari yasovchilar hunarmandchilik terminlarini yasashda faol ishtirok etganligini ko'rish mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Hojiyev bu usulni leksik-semantik usul ham deb ataydi//Qarang: O'zbek tili so'z yasalishi, 29 –bet.
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 1,2,3,4,5 томлар. –Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006-2008. – Б.726.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Бешинчи жилд.–Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти. – Б.600.
4. Hatamova D.A. Adabiyotshunoslik terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – TVDPI, 2005. – 208 b.
5. Адабиётшunoslik терминларининг муқобиллик муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006. 2-сон. – Б.108.
6. Адабиётшunoslik терминларининг ҳозирги аҳволи ҳақида // Адабиёт кўзгуси, 2006. 9-сон. – Б.250.





7. Abdiraxmonov, A., & Khurramov, O. (2022). FORMING THE PROFESSIONAL SKILLS OF UNDERGRADUATE MATHEMATICIANS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 920-925.
8. Abdiraxmanov, A. (2022). The educational purpose of teaching mathematics. Karshi-Journal of Pedagogical Inventions and Practices.
9. Abdirahmonov, A. (2022, March). THE SUBJECT OF MATHEMATICS PURPOSE AND CONTENT. In E Conference Zone (pp. 83-85).
10. Abdirahmonov, A. (2022, March). OBJECTIVES, CONTENT AND MAIN TYPES OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN MATHEMATICS. In E Conference Zone (pp. 118-121).
11. Abdiraxmanov, A. (2021). Ways of formation of the professional skills of undergraduate mathematicians. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(5), 1202-1208.